

CHIKAGO MAKTABINING SOTSILOGIYA TARIXIDA TUTGAN O'RNI

Ilxomov U.U.

O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi. Toshkent, O'zbekiston.

Ismoilova Mohira Sherzod qizi

Sotsiologiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi.

O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O'zbekiston.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15312763>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Chikago maktabining sotsiologiya tarixidagi o'rni va uning zamonaviy sotsiologiya rivojlanishiga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi. Chikago maktabi XX asr boshlarida Amerikada shakllangan bo'lib, urbanizatsiya, migratsiya va ijtimoiy dezorganizatsiya jarayonlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratdi. Robert Park, Ernest Burgess kabi olimlar empirik tadqiqot usullarini rivojlantirib, sotsiologiyada amaliy yondashuv asoslarini yaratdilar. Ularning ishlari shaharlardagi ijtimoiy o'zgarishlarni tahlil qilishda yangicha metodologiyani taklif etdi. Shuningdek, Chikago maktabi ijtimoiy ekologiya va jinoyatchilik sohasida ham muhim nazariy asoslar ishlab chiqdi. Maqolada ushbu maktabning metodik innovatsiyalari va ularning keyingi avlod tadqiqotchilariga ta'siri batafsil ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Chikago maktabi, sotsiologiya, urbanizatsiya, migratsiya, empirik tadqiqotlar, ijtimoiy dezorganizatsiya, shaharlashuv, ijtimoiy ekologiya, jinoyatchilik, nazariy yondashuvlar, amaliy sotsiologiya, metodologik innovatsiyalar.

THE PLACE OF THE CHICAGO SCHOOL IN THE HISTORY OF SOCIOLOGY.

Abstract. This article analyzes the role of the Chicago School in the history of sociology and its contribution to the development of modern sociology. The Chicago School emerged in early 20th century America and paid special attention to studying urbanization, migration, and social disorganization processes. Scholars like Robert Park and Ernest Burgess advanced empirical research methods and laid the foundations for applied sociology. Their work introduced new methodologies for analyzing social changes in urban environments. Moreover, the Chicago School developed important theoretical frameworks in social ecology and criminology. The article examines the methodological innovations of the school and their impact on subsequent generations of researchers.

Keywords: Chicago School, sociology, urbanization, migration, empirical research, social disorganization, urban studies, social ecology, crime studies, theoretical approaches, applied sociology, methodological innovations.

МЕСТО ЧИКАГСКОЙ ШКОЛЫ В ИСТОРИИ СОЦИОЛОГИИ.

Аннотация. В статье анализируется место Чикагской школы в истории социологии и ее вклад в развитие современной социологии. Чикагская школа возникла в Америке в начале XX века и сосредоточилась на изучении процессов урбанизации, миграции и социальной дезорганизации. Такие ученые, как Роберт Парк и Эрнест Берджесс, разработали эмпирические методы исследования и заложили основы практического подхода в социологии. Их работа предложила новую методологию анализа социальных изменений в городах. Чикагская школа также разработала важные теоретические основы в области социальной экологии и криминологии. В статье подробно рассматриваются методологические новации этой школы и их влияние на следующее поколение исследователей.

Ключевые слова: Чикагская школа, социология, урбанизация, миграция, эмпирические исследования, социальная дезорганизация, урбанизация, социальная экология, преступность, теоретические подходы, прикладная социология, методологические инновации.

Sotsiologiya fanining shakllanishi va rivojlanishida turli ilmiy maktablarning o'рни beqiyos bo'lgan. Ular orasida alohida o'rin egallagan Chikago maktabiga XX asr boshlarida Amerikada asos solingan bo'lib, zamonaviy sotsiologiyaning metodologik va nazariy asoslarini rivojlantirishda sezilarli rol o'ynagan. Chikago universiteti atrofida shakllangan ilmiy muhit urbanizatsiya, migratsiya, ijtimoiy dezorganizatsiya kabi dolzarb ijtimoiy hodisalarni o'rganishda yangi metodologiyalarni joriy etdi.

Chikago sotsiologiya maktabi 1920-1930-yillarda paydo bo'ldi, unga Robert E.Park, Ernest Byorjess, Lui Virt kabi taniqli sotsiologlar rahbarlik qildilar. Bu olimlarga pragmatizm g'oyalari va o'sha davrning ijtimoiy ekologiya nazariyasi ta'sir ko'rsatdi. Ular shahar hayotining ijtimoiy dinamikasini va shaharning odamlar va jamoalarga ta'sirini tushunishga o'z e'tiborini qaratishgan[1].

Chikago maktabi (1892-1935) faoliyatida odatda kamida ikki bosqich - tayyorgarlik va faol ishlash bosqichlari ajratiladi. Birinchi, tayyorgarlik bosqichi 1892-1915-yillarni, ya'ni Chikago universitetining sotsiologiya fakultetini tashkil etish vaqtidan boshlab to maktab yetakchilari R.Park va E.Byorjess tomonidan maktab faoliyatining asosiy bosqichida empirik sotsiologiyaning markaziy g'oyalarini shakllantirishgacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Mazkur bosqichda yagona tadqiqot dasturi yaratilmaganiga qaramay, uni shakllantirishning boshqa muhim vazifalari hal etildi. Avvalambor, universitetning sotsiologiya kafedrasi va sotsiologiya fakulteti atrofida nazariy va empirik tadqiqotlarni birlashtirishning ko'plab tarafdorlarini to'plashga muvaffaq bo'lindi.

Chikago maktabining ikkinchi (asosiy) rivojlanish bosqichida (1916-1935) R.Park va E.Byorjess sotsiologiya va aniq empirik tadqiqotlar rivojlanishiga taalluqli markaziy, prinsipial qoidalarni ifodalashga urindilar. Mazkur bosqich ko'plab tadqiqotlar o'tkazilishini, o'nlab yirik ishlar chop etilishini, AQSh va Yevropada sotsiologiya dunyosiga kengayib borayotgan ta'sirni o'z ichiga oladi[2].

1915-1940-yillar orasida, Chikago Universitetining Sotsiologiya kafedrasida faoliyat yuritgan kichik bir professorlik tarkibi, o'nlab iqtidorli aspirantlar bilan birgalikda, Chikago shahrini chuqur o'rganishdi. Ular ijtimoiy fanlar yondashuvlaridan foydalangan holda yangi bir tadqiqot sohasi yaratishga intilishdi va shaharni o'z laboratoriyalari sifatida qabul qilishdi.

Chikago bunday harakat uchun ideal joy edi: XIX asrning ikkinchi yarmida, 1850- yilda 30,000 kishidan iborat bo'lgan aholi soni 1900-yilda 1,700,000 ga yetdi, ehtimol, tarixdagi eng tez o'sishlardan biri bo'ldi. Aholining uchdan biri tashqarida, Germaniya, Polsha, Irlandiya, Italiya va boshqa o'nlab mamlakatlarda tug'ilgan edi. Shaharda fohishalik, mastlik, uysiz sayohatchilar va o'g'il bolalar janjallari kabi ijtimoiy muammolar ko'pligicha mavjud edi.

Sotsiologiya kafedrasining professorlari talabalarni Chikagoning "haqiqiy dunyosi" ga yuborib, ma'lumot to'plashni topshirdilar. Ular turli tadqiqot metodlarini qo'lladilar - mavjud usullarni takomillashtirdilar[3]. Ayniqsa Park va uning hamkasblari, shahardagi ijtimoiy tuzilmalarni o'rganishda xaritalar, statistik ma'lumotlar va boshqa vizual asboblardan foydalanishgan.

Parkning o'zi shunday degan: "Men o'qitgan har bir kursda, albatta, bir-ikki nafar talaba xarita tuzishga qiziqardi. Eng avval jinoyatchi yoshlarning tarqalishini aks ettirgan xaritalar yaratildi. Keyin esa shahardagi kinoteatrlarning joylashuvini ko'rsatadigan xaritalar paydo bo'ldi. Ortidan jamoat raqs zallariga tashrif buyuruvchilarning taqsimotini tasvirlovchi xaritalar tuzildi. Shaharning turli mahallalari o'rtasidagi keskin farqlar bizni nihoyatda ta'sirlantirdi.

Dastlabki maqsadlarimizdan biri esa ushbu rang-barang parchalarni o'zaro bog'lab, ulardan qandaydir umumiy bir naqsh, mantiqiy tizim yaratishga urinish edi"[4].

Bu yondashuv orqali, ular shaharning turli qismlaridagi ijtimoiy hayotni va o'zaro aloqalarni o'rganib, har bir guruhning o'ziga xos xususiyatlarini tushunishga harakat qilishdi. Shaharning ijtimoiy strukturasini tahlil qilish uchun, ular empirik ma'lumotlarni to'plashga katta ahamiyat berdilar va bu jarayonda xaritalardan faol foydalanishdi. Park va uning hamkasblari shaharni faqat bir joy sifatida ko'rmay, uni turli ijtimoiy guruhlarining o'zaro aloqalarining maydoni sifatida tasvirladilar. Ular shaharning har bir

qismi qanday qilib bir-biriga bog'langanini va bu bog'lanishlarning qanday mantiqiy tizim yaratishini o'rganishga intilishdi.

Ular ko'rganlarini tasvirlab, tahlil qildilar. Chikago sotsiologiya fakulteti, The Polish Peasant in Europe and America kabi kitoblar yozdi. Sotsiologiya bo'yicha aspirantlar dissertatsiyalar yozishdi, ularning ko'plari Chikago Universiteti Nashriyoti tomonidan nashr etilgan kitoblarga aylandi. Ulardan ajralib turadiganlar: The Ghetto, The Hobo, The Gang, va The Gold Coast and the Slum kabi asarlar edi. Ko'plab kitoblar sotsiologiyaning klassik asarlariga aylandi. Bu ishlar oldidan, sotsiologiya asosan tarix va falsafaning kombinatsiyasi bo'lib, bir turdagi divan ilmiga aylanib qolgan edi. Chikago maktabi olimlari uni empirik, ya'ni tajribaviy ilmga aylantirishdi.

Muhim jihati shundaki, Chikago Universitetining sotsiologlari o'zlarini "maktab" deb atamaganlar. Bu atama ularga keyinchalik qo'llanildi, chunki boshqalar ularning yutuqlarining umumiy ta'sirini tan oldilar[5].

Chikago maktabi metodologiyasi doirasida bajarilgan sotsiolog-empiriklarning ishlarida odamlarning kundalik hayoti mazmunini tashkil etuvchi muammolarning ahamiyati ta'kidlab o'tilardi. Ularning tadqiqotlari umumiy, tizimli nazariyani yaratishda emas, balki odamlar hayotida muhim o'rin tutgan, ularni to'liqlantirgan va har kuni bo'lmasa-da, tez-tez va muntazam hal etish zarur bo'lgan muammolar doirasini aniqlash va tahlil qilishga qaratilgan edi. Shu orqali sotsiologiyaning insonning aniq ehtiyojlari, talablari va manfaatlarini o'rganishga tomon burilishi ta'minlandi. Shu bilan birga, sotsiologlarning Chikago maktabi doirasidagi hamkorligi jamiyat (shahar) ning ijtimoiy ehtiyojlarini o'rganishga va ularni amalga oshirish uchun sharoitlar yaratishga qaratildi.

Chikago maktabining ahamiyati shunda ediki, empirik tadqiqotlarda nafaqat "sub'ektiv omilga", ya'ni odamlarning biror masala yuzasidan fikrlariga, balki shu fikrlarni uyg'otgan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy tushdagi ob'ektiv vaziyatlarga asosiy e'tibor berildi. Shu tarzda, obyektiv va subyektiv, umumiy va juz'iyning birikuvi ta'minlangan edi[6].

Xulosa qilib aytganda, Chikago maktabining yondashuvlari zamonaviy sotsiologiya, ijtimoiy ekologiya va jinoyatchilik sotsiologiyasi kabi sohalarda mustahkam asos yaratdi. Shaharlashuv, madaniy xilma-xillik va ijtimoiy integratsiya jarayonlarini tahlil qilishda bu maktab ilgari surgan metodlar va nazariyalar bugungi kunda ham sotsiologiya fani va shahar tadqiqotlarida muhim o'rin tutadi, chunki uning ishlari ijtimoiy tuzilmalarni va shahar ekologiyasini o'rganishda asosiy metodologik yondashuvlarni taqdim etdi. Bugungi sotsiologlar va shahar tadqiqotchilari, ayniqsa, shaharlarni ekologik tizimlar sifatida o'rganishda va ijtimoiy guruhlarining o'zaro ta'sirini tahlil qilishda Parkning va uning hamkasblarining usullariga asoslanadilar. Shuningdek, ularning empirik tadqiqotlari va vizual asboblardan foydalanish metodlari hali ham amaliyotda keng qo'llaniladi.

Chikago maktabining metodologik yondashuvi zamonaviy sotsiologiyada, ayniqsa shahar, migratsiya va ijtimoiy tengsizlik kabi masalalar bo'yicha tadqiqotlar olib borishda muhim ahamiyatga ega.

REFERENCES

1. <https://easysociology.com/sociological-perspectives/the-chicago-school-of-sociology-an-overview/>
2. Gulnoz J. Sotsiologiya tarixi.–T.: Innovatsiya-Ziyo, 2020.–466 b.
3. <https://www.lib.uchicago.edu/media/documents/exmym-Chicago-Sociology-T.pdf>
4. exmym-Chicago-Sociology-T.pdf
5. <https://www.lib.uchicago.edu/media/documents/exmym-Chicago-Sociology-T.pdf>
6. https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/05/20/NamDU-ARM-1229-Sotsiologiya_tarixi.pdf